




# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023- YIL YANVAR-IYUN OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)




**Tel.: 61-222-75-87**

**[www.qrstat.uz](http://www.qrstat.uz)**


2023 yil yanvar-iyun oylarida



Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi korxonalari tomonidan 7863,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 90,5 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 6771,1 mlrd. so‘m jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 86,1 % ni tashkil etdi.




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi kamayishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 9,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 17,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 12,2 % ga pasayishidir. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 88,9 % ga oshganligi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 110,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini tashkil etdi.




2023- yil yanvar-iyun oylarida  
O‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da

**Ohah tosh**



**Tabiiy gaz**




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Ohah tosh, tonna	123148,1	89833,7	-33314,4
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	712,6	520,4	-192,2

**Gaz kondensati**



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Gaz kondensati, ming t.	39,9	31,7	- 8,2


2023- yil yanvar-iyun oylarida



2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6771,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,1 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi – 0,01 % ni (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali– 50,6 % (61,7 %), o'rta-quyi texnologiyali– 5,0 % (4,6 %) hamda quyi texnologiyali – 44,4 % (33,5 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 51,0 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 72,8 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 19,8 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,9 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,9 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,7 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 81,1 %) tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati**

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 4,1 ming tonna tozalangan guruch (2022- yilning mos davriga nisbatan 190,3 % ga), 3,6 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (47,7 %), 8,8 ming tonna kalava ip (4,4 %), 28,1 ming tonna paxta chigiti (1,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘shish sur‘ati kuzatildi. Shuningdek, 1598,6 ming litr aroq (8,9 %), 17,7 ming tonna paxta tolasi (3,0 %) 138,8 ming tonna portlandsement (3,4 %), 30,9 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (51,1 %) ishlab chiqarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	1755,5	1598,6	-156,9
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	2407,8	3555,6	1147,8
Paxta tolasi, t.	18289,8	17735,3	-554,5
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	63233,2	30894,5	-32338,7
Polietilen, ming t.	150,2	129,0	- 21,2
Polipropilen, ming t.	42,3	38,1	-4,2


### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 61,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 50,3 % ni, fizik hajm indeksi 72,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3405,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 106,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 6,9 % ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1214,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 87,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 5,9 % ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1386,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 108,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 18,9 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 251,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2022- yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 107,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 107,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 125,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 132,8 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 90,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 92,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Mebellar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-iyun oylarida mebel mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 119,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi 225,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 105,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-iyun oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 146,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 124,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 48,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-iyun oylarida, boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 166,2 %.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 59,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 36,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 933,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,9 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 82,5 % ni tashkil etdi.




**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt.s	2820,4	2577,6	-242,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	28,5	25,6	-2,9

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 49,0 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**




O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,3 % ga oshganligi va shahar xo'jaliging qayta foydalanishga yaroqsiz, xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 46,4 % ga kamayganligi kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1287,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 16,4 % ni tashkil etdi.

#### Oziq-ovqat mahsulotlari



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (112,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Nukus (237,0 %), Xo'jayli (219,6 %), Kegeyli (141,8 %), Amudaryo (133,3 %), Bo'zatov (127,1 %), Ellikqal'a (123,9 %), Shumanay (119,9 %), Beruniy (115,8 %) hamda Qorao'zak (114,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan past o'sish sur'ati Taxtakopir (56,4 %), To'rtko'l (87,7 %), Taxiatosh (92,6 %) tumanlarida va Nukus shaxrida (95,3 %) qayd etildi.

#### Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 81,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 18,6 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 62,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 37,1 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 106,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 147,5 % ni tashkil etdi.





### Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib 20,2 % ni, shuningdek, Xo'jayli tumani 12,4 % ni, Taxiatosh tumani 12,2 % ni, Beruniy tumani 7,7 % ni, To'rtko'l tumani 7,4 % ni, Amudaryo tumani 7,2 % ni, Ellikqal'a tumani 7,0 % ni va Chimboy tumani 5,5 % ni tashkil etdi.




#### Qoraqalpog'iston Respublikasi




### Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi yuqori ulushi Nukus shahri 13,5 % ni, Nukus umani 12,7 % ni, Xo'jayli tumani 12,0 % ni, Ellikqal'a tumani 11,2 % ni, To'rtko'l tumani 10,5 % ni, Amudaryo tumani 9,8 % ni hamda Beruniy tumani 5,9 % ni tashkil etdi.



■ o'sish sur'ati  
■ mlrd. so'm



### Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 21,8 %, shuningdek, Taxiatoş tumani 14,5 % ni, Xo'jayli tumani 12,5 % ni, Beruniy tumani 8,2 % ni, To'rtko'l tumani 6,7 % ni hamda Amudaryo tumani 6,6 % ni tashkil etdi.

751,3 mlrd. so'm



2021- yil yanvar-iyun

896,5 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-iyun

1047,4 mlrd. so'm




2023- yil yanvar-iyun





### Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari


Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 44,8 %), Taxiatoş (13,3 %), Qo'ng'iro't (7,0 %), To'rtko'l (5,0 %), Amudaryo (4,7 %) va Beruniy (4,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.





o'sish sur'ati  
mlrd. so'm

### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Taxiatosh tumanida (13709,0 ming so'm) va Nukus shahrida 10507,5 ming so'm) o'rtacha Respublika darajasi ko'rsatkichidan (3968,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.






█ o'sish sur'ati  
█ ming. so'm






### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 649,5 ming so'm bo'lgani holda, Taxiatosh tumanida 2060,3 ming so'mni, Xo'jayli tumanida 1246,8 ming so'mni, Nukus tumanida 922,8 ming so'mni, Mo'ynoq tumanida 904,8 ming so'mni va Taxtako'pir tumanida 742,7 ming so'mni tashkil etdi



### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2057,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,2 % ni tashkil etdi.



■ ulushi, % da  
■ mlrd. soʻm

**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda respublikada 3372 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1860 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 55,2 %) Nukus shahriga 613 tasi (18,2 %), Amudaryo 322 tasi (9,6 %), To'rtko'l 319 tasi (9,5 %), Ellikqal'a 311 tasi (9,2 %), Beruniy 295 tasi (8,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda

Jami yangi tashkil etilgan

460 dona

2021- yil yanvar-iyun

455 dona

2022- yil yanvar-iyun

988 dona

2023- yil yanvar-iyun



Jami faoliyat yuritayotgan

3146 dona


2021- yil 1-iyul holatiga

3383 dona

2022- yil 1-iyul holatiga

3372 dona

2023- yil 1-iyul holatiga



Yangi tashkil etilgan

Faoliyat yuritayotgan

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Qoraqalpogʻiston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori oʻsish surʼatlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 13 ta loyiha boʻyicha 239,1 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 9,3 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida 57 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi oʻtgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish oʻrinlari soni 32,9 % ga kamaygan. Shu bilan birga, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining oshganligi kuzatildi

